



## HADISLARDA CHIN MUSULMONLIK DARAJASI

**Shokhsanam Saydulloyeva Mashrafjonovna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,  
Maktabgacha vaboshlang'ich ta'lif fakulteti  
"Boshlang'ich ta'lif" kafedrasi assistenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chin musulmon kishining odatlari, xulqi va amallari bayon etilgan. Musulmon darajasiga ega bo'lgan insonda yaxshilikllar va savobli ishlarni qilish ruhi kuchli bo'ladi. U shu ruh bilan turli savob ishlarni amalga oshiradi. O'zgalarga qilgan yaxshiligi uchun xursand bo'ladi. Xuddi shu asosda u komillikka erisha boradi.

**Kalit so'zlar:** musulmon, hadis, jannat, ezgu xulq, g'iybat, yaxshilik, Qur'oni karim, komillik

Mo'min kishi hayoti davomida doim yaxshilikni izlaydi. Yaxshilikka yetaklovchi yo'llarni axtaradi. Chunki yaxshilik bandani jannatga olib borishi Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflarda juda ko'p bora ta'kidlangan. Zero, Rasululloh (s.a.v): "Sizlardan birortangiz o'zi yaxshi ko'rgan narsasini birodariga ravo ko'rmaguncha mo'min bo'la olmaydi", deganlar. Bu hadis sharhida ulamolar "mo'min bo'la olmaydi" jumlasini "chinakam mo'min bo'la olmaydi", deb sharhlaganlar. Kishi o'ziga ravo ko'rgan narsani o'zgaga ham ravo ko'rishi faqatgina unga biror bir narsani berish yoki nasib qilishini xohlashi bilangina emas, balki o'zi yomon ko'rgan narsani unga ham ravo ko'rmaslik, ayblarini berkitish, haq o'rnida himoya qilish, doim yaxshilik bilan eslash va boshqa sifatlar bilan ham bo'ladi. Islom dini insonlarni dunyo va oxiratda farovon yashashi garovi bo'lgan narsalarga chorlaydi va targ'ib qiladi. Kishi ushbu hikmatni teran anglab yetsa, Payg'ambarimiz (s.a.v)ning nima uchun kishi o'ziga ravo ko'rgan narsani o'zgaga ham ravo ko'rishi imonni mukammal qiluvchi xulqlardan sanaganlarini tushunib yetadi. Axir do'stiga faqat bir yaxshilknigina emas, balki o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani ravo ko'rmoqda. Zero, kishi o'zi yaxshi ko'rgan narsa odatda o'zi uchun foydali, yoqimli va xayrli narsa bo'ladi. Bu narsalarni o'zgaga ham ravo ko'rish, o'zga shaxsning bu odamga nisbatan mehri va hurmatini oshiradi. O'zaro aloqalar yaxshilanadi.

Inson har doim yaxshi ko'rgan insoni uchun eng yaxshisini tanlashni xoxlaydi. Uning xursand bo'lganidan o'zida ham ham mammunlik hissini tuyadi. Inson o'ziga ravo ko'rgan narsani o'zgaga ham ravo ko'rishi bu go'zal sifatlar orasida eng muhimlaridan deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Insonning go'zal hayot kechirishi faqat o'zigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki buning uchun jamiyatni tashkil qiluvchi kishilarning bir-birlari bilan o'zaro aloqalarini va munosabatlari yaxshi va mustahkam bo'lishi kerak.

Abu Hurayra (roziyalohu anhu)dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (s.a.v) bunday deb marhamat qildilar: "Musulmonning musulmon birodari ustidagi haqi oltitadir. Ular: kishi birodariga yo'liqsa, unga salom berishi, qachon uyiga chaqirsa, chaqirig'iga labbay deyishi, qachon nasihat so'rasa, unga nasihat qilishi, qachon aksa urib, so'ng Allohga hamd aytsa,

unga yaxshilik tilashi, qachon bemor bo'lsa, uni borib ko'rishi va qachon vafot etsa, janozasida hozir bo'lishi" (Imom Muslim rivoyati).

Mazkur hadisga nazar solsak, unda zikr qilingan narsalar aynan insonni o'zga insonga qilgan odamgarchiligi, unga qilgan yaxshiliklari va jamiyat mustahkamligiga asos bo'lgan narsalar sanalganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni salom berish islom amallarining ustunidir. Bir musulmon birodarini ko'rganda dastavval salomlashishdan gap boshlanadi hol-ahvollari so'rab bo'lingandan so'ng esa umumiy gaplarga o'tiladi. "Assalomu alaykum" kalimasiga nazar soladigan bo'lsak, Assalomu alaykum (arabcha — sizga tinchlik, salomatlik tilayman) — musulmonlar o'zaro uchrashganda ishlatiladigan salomlashuv iborasi hisoblanadi. Salom qabul qiluvchi „Va alaykum assalom“ („Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman“), deb javob qaytaradi. Assalomu alaykum tanigan va tanimagan musulmonlarga beriladi.

Bundan tashqari, birodariga yaxshilik qilgan inson unga kibrlanmaydi va o'zini undan katta olmaydi. Zero, bir rivoyatda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) insonning birodariga qilgan yaxshiliklaridan biri unga kamtarona munosabatda bo'lib, kibr qilmaslik ekanligini aytganlar. Musulmon odam musulmon birodarining turli ayblarini berkitish uchun iloji boricha harakat qiladi. Chunki muqaddas e'tiqod bo'yicha birovlarning aybini berkitgan odamning aybini Alloh taoloning O'zi berkitadi.

Ayrim odamlar borki, o'zgani ko'ra olmaslik, unga havas bilan emas, balki hasad bilan qarash kasalligiga chalinganlar. Ularning erishgan yutuqlarini ko'ra olmaydilar va turli bo'hton va fisq-u fasodlarni o'ylab chiqaradilar. Bir odam mo'min kishini g'iybat qilib, obro'sini to'kayotgan bo'lsa, uni eshitib turgan kishilar ichidan mazkur mo'minni himoya qilgan odam katta ajrga ega bo'ladi. Mo'min kishining obro'sini himoya qilgani qiyomatda unga katta baxt bo'lib qaytadi. Alloh taolo uni do'zaxdan himoya qiladi. Shuning uchun ham mo'minlar bir-birlarini munofiqlarning g'iybat va bo'htonlaridan himoya qilishlari zarurdir. Aksincha, bu dunyoda mo'min-musulmonni ayplash bilan mashg'ul bo'lgan odam qiyomatda xijolatda qoladi. Mahsharga to'planganlar huzurida qilgan nobakorligi jazosi o'laroq, jahannam ko'prigidan o'ta olmay to'xtab qoladi. Shu sabab mo'min banda zinhor o'z birodarini ayplashga o'tmasligi kerak.

Darhaqiqat, musulmonlar bir-birlarini yomonlarning g'iybat va bo'htonlaridan saqlashlari, himoya qilishlari lozimdir. Agar bu ish qilinmasa, jamiyat ig'vo, bo'hton bilan to'ladi. Bu bilan jamiyat a'zolari orasida o'zaro adovat avj oladi. Asta-sekin bunday jamiyat tanazzulga yuz tutadi.

Musulmon bo'lgan har bir inson o'zida yaxshi xislatlarni shakllantirish hamda yomon xislatlarni ketkazmog'i lozim. Shundagini insonlarga va'da qilingan janat darvozlaridan yorug' yuz bilan kirish nasib qiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saydulloyeva Sh.M., "Methodology of innovative teaching of Hadits and summary work in primary classes (parable, quick telling, riddle)", //Neo scientific peer reviewed journal (ISSN (E): 2949 7752) | volume: 7 | Feb. 2023, [www.neojournals.com](http://www.neojournals.com)
2. Saydulloyeva Sh.M., Omonillayeva M. "Problems of increasing the innovative professional training of future primary school teachers", Eurasian Jounal of learning and Academic Teaching [www.geniusjournals.org](http://www.geniusjournals.org) volume 25 October 2023 ISSN: 2795-739X
3. Abu Abdullah Muhammad ibn Isma'il al-Bukhari, "AL-JAMI 'AS-SAHIH" (Vol. 1), General Editor of the Encyclopedia, T.:1991.
4. Abu Lays Samarkandiy. Bostonul orifiyn. -T .: "Movaunnahr", 2006
5. Shodiyev. F.T., Saydulloyeva Sh.M., "Hadiths and their ways of usage in the education of pupils", maqola, 2023
6. Law of "About education" the Republic of Uzbekistan. Tashkent, September 23, 2022, No. ZRU-637.